
TUMAN HOKIMI ABDUQAHHOR DJURABAYEV TOSHLOQ TUMANI XALQINI BAYRAM BILAN TABRIKLADI

Bayram tadbirida soʻz olgan Toshloq tumani hokimi Abduqahhor Djurabayev barcha toshloqliklarni mustaqillikning oʻttiz ikki yillik bayrami bilan samimiy muborakbod etib, mustaqillik yillarida yurtimizda, xususan, Toshloq tumanida bunyodkorlik, sanoat, qishloq xoʻjaligida hamda barcha sohalarida xalqimiz turmush farovonligini yuksaltirish borasida keng koʻlamli ishlar amalga oshirilganligini taʼkidlab oʻtdi. Tumanda taʼlim, sogʻliqni saqlash sohalarini rivojlantirish, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”ga kiritilgan fuqarolar bilan ishlash, aholi bandligini taʼminlash borasida ham eʼtiborga molik ishlar olib borilmoqda. Umuman, toshloqliklar mustaqillikning oʻttiz ikki yillik toʻyini oʻziga xos yutuqlar bilan nishonlamoqdalar, -deydi tuman hokimi tabrik soʻzidi.

2023-08-30 20:56:22